

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 1835,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 30,5 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 610,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,2 %), qishloq aholisi soni 1225,4 ming kishini (66,8 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2018 yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **30,5 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **40,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- **8,2 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **16,0 mingta nikoh** va **1,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Xorazm viloyat aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)



## Demografik holat


### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)

Shahar va tumanlar	<i>Doimiy aholi soni , ming kishi</i>			<i>Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %</i>		
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>


<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	1835,5	610,1	1225,4	101,7	101,5	101,8
Urganch shahar	141,8	141,8	-	101,1	101,1	-
Xiva shahar	90,7	90,7	-	101,6	101,6	-
tumanlar:						
Bog'ot	160,9	28,2	132,7	101,8	101,8	101,8
Gurlan	145,4	62,0	83,4	101,5	101,5	101,5
Qo'shko'pir	168,5	43,2	125,3	101,8	101,4	101,9
Urganch	193,7	26,0	167,8	101,9	101,7	101,9
Xazorasp	243,5	52,8	190,7	101,7	101,2	101,9
Xonqa	182,7	62,8	120,0	101,7	101,7	101,7
Xiva	142,5	16,6	125,9	101,9	101,9	101,9
Shovot	166,4	43,2	123,2	101,8	101,6	101,9
Yangiariq	113,7	27,0	86,7	101,6	101,8	101,6
Yangibozor	85,6	15,8	69,8	101,7	101,5	101,7

Tumanlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p doimiy aholi sonining o'sish surati Urganch tumanida 101,9 %, Xiva tumanida 101,9 % , Bog'ot tumanida 101,8 % aksincha eng kam aholi soni Urganch shahrida 101,1 % va Gurlan tumanida 101,5 % tashkil etdi.

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Xazorasp tumanida 243,5 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni) va Urganch tumanida 193,7 ming kishini (10,6 %), aksincha eng kam aholi soni Yangibozor tumanida 85,6 ming kishi (4,7 %) va Xiva shahri 90,7 ming kishini (4,9 %) tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 40,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,0 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega ko'paygan (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 21,0 promille bo'lgan).



Qiz bolalar:  
19,1 ming nafar



O'g'il bolalar:  
20,9 ming nafar

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq


### Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi, yanvar-dekabr )

Shahar va tumanlar	2017 y	2018 y	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>37619</b>	<b>40 037</b>	106,4
Urganch shahar	2821	2 846	100,9
Xiva shahar	1793	1 940	108,2
tumanlar:			
Bog'ot	3401	3 586	105,4
Gurlan	2795	3 013	107,8
Qo'shko'pir	3556	3 903	109,8
Urganch	3645	3 904	107,1
Xazorasp	5180	5 589	107,9
Xonqa	3808	4 120	108,2
Xiva	3051	3 195	104,7
Shovot	3618	3 831	105,9
Yangiariq	2144	2 270	105,9
Yangibozor	1807	1 840	101,8

## Demografik holat

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Qo'shko'pir tumanida (21,6 promilledan 23,4 promillega), Xiva shahar (20,2 promilledan 21,6 promillega), Gurlan tumanida (19,6 promilledan 20,9 promillega), Xazorasp (21,8 promilledan 23,1 promillega) va Xonqa (21,4 promilledan 22,7 promillega) tumanlarida ko'payish kuzatildi.

### Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



*Viloyat bo'yicha 2018 yil sentabr va oktabr oylarida eng ko'p tug'ilish, ya'ni 4,7 va 5,0 ming bola qayd etilganligi kuzatildi.*

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 8,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,6 promille bo'lgan).

Vafot etganlar



Erkaklar:  
4,4 ming

Ayollar:  
3,7 ming


**Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni  
(kishi, yanvar-dekabr )**

Shahar va tumanlar	2017 y	2018 y	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>8324</b>	<b>8173</b>	98,2
Urganch shahar	945	869	92,0
Xiva shahar	431	446	103,5
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	712	671	94,2
Gurlan	653	631	96,6
Qo'shqo'pir	695	722	103,9
Urganch	864	865	100,1
Xazorasp	1090	1083	99,4
Xonqa	771	821	106,5
Xiva	585	550	94,0
Shovot	729	678	93,0
Yangiariq	471	478	101,5
Yangibozor	378	359	95,0

## Demografik holat

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Urganch shahar (6,8 promilledan 6,2 promillega) Xiva tuman (4,5 promilledan 3,9 promillega), Bog'ot (4,5 promilledan 4,2 promillega) Shovot (4,5 promilledan 4,1 promillega) va Yangibozor (4,5 promilledan 4,2 promillega) tumanlarida kuzatildi.

**Tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffisienti  
(2018 yil, yanvar-dekabr )**




*FXDYO organlari tomonidan 2018 yil iyul oyida eng ko'p, ya'ni 0,9 ming vafot qayd etilganligi kuzatildi.*

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,2 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,7 %i o'simtalardan, 5,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 14,5 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 64,8 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 7,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 16,9 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,8 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,9 % iyuqumli va parazitlar kasalliklardan va 4,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-dekabr

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi ning tabiiy o'sishi 31,8 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 2,5 ming kishiga (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 29,3 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
31,8 ming kishi



## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 16,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,8 promilleni tashkil etdi. Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiariq (112,5 %), Xiva (109,9 %), Yangibozor (107,9 %), Shovot (101,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 0,6 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'atlari Xiva (52,2%), Urganch shahar (61,5 %), Qo'shko'pir (61,5 %), va Xazorasp tumanlariga (71,3 %) to'g'ri kelmoqda.




### Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (birlik, yanvar-dekabr)



Shahar va tumanlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 yil	2018 yil	o'sish, %	2017 yil	2018 yil	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>16397</b>	<b>16032</b>	<b>97,8</b>	<b>1325</b>	<b>1025</b>	77,4
Urganch shahar	1329	1280	<b>96,3</b>	260	160	61,5
Xiva shahar	688	651	<b>94,6</b>	56	58	103,6
tumanlar:						
Bog'ot	1560	1470	<b>94,2</b>	67	66	98,5
Gurlan	1301	1250	<b>96,1</b>	94	84	89,4
Qo'shko'pir	1500	1421	<b>94,7</b>	143	88	61,5
Urganch	1609	1505	<b>93,5</b>	160	146	91,3
Xazorasp	2415	2246	<b>93,0</b>	160	114	71,3
Xonqa	1620	1531	<b>94,5</b>	89	81	91,0
Xiva	1161	1266	<b>109,0</b>	67	35	52,2
Shovot	1485	1503	<b>101,2</b>	107	93	86,9
Yangiariq	952	1071	<b>112,5</b>	69	56	81,2
Yangibozor	777	838	<b>107,9</b>	53	44	83,0


### Tumanlar bo'yicha tuzilgan nikohlar va koeffisienti (2018 yil, yanvar-dekabr)



**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan tuzilgan nikohlar soni Xazorasp tumanida 2,2ming kishi, Shovot 1,5ming kishi, Xonqa tumanida 1,5 ming kishi, Bog'ot tumanida 1,5ming kishi, Urganch tumanida 1,5ming kishi, Qo'shko'pir tumanida 1,4 ming kishi, Urganch shahar, 1,3ming kishi, Gurlan tumanida 1,3 ming kishi, Xiva tumanida 1,3ming kishi, Yangiariq tumanida 1,1ming kishi, Yangibozor tumanida 0,8ming kishi.

*Viloyat bo'yicha 2018 yil iyul oyida eng ko'p tuzilgan nikohlar Xazorasp tumanida, ya'ni 2,2 ming kish qayd etilganligi kuzatildi.*

## Tumanlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffisienti (2018 yil, yanvar-dekabr)



**Nikohdan ajralishlar** . 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan nikohdan ajralishlar soni Urganch shaharda 0,2ming, va tumanlar boyicha 0,1ming, kishini tashkil qildi.

*Viloyat bo'yicha 2018 yil iyul oyida eng ko'p nikohdan ajralganlar soni Urganch shahrida , ya'ni 0,2 ming kish qayd etilganligi kuzatildi.*

## Demografik holat

**Migrasiya.** 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,3 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 7,6 ming kishini tashkil etdi. Migrasiya saldosini minus 1,3 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 1,1 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migrasiyasi ( kishi)

Shahar va tumanlar	2017 yil yanvar-dekabr			2018 yil yanvar-dekabr		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migrasiya saldosini	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migrasiya saldosini
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>6639</b>	<b>7730</b>	<b>-1091</b>	<b>6 308</b>	<b>7 612</b>	<b>-1 304</b>
Urganch shahar	1548	2516	-968	1 747	2 122	-375
Xiva shahar	145	258	-113	149	199	-50
tumanlar:						
Bog'ot	248	312	-64	218	322	-104
Gurlan	174	420	-246	196	386	-190
Qo'shko'pir	407	605	-198	325	604	-279
Urganch	2260	1118	1142	1 901	1 348	553
Xazarasp	267	628	-361	304	679	-375
Xonqa	305	480	-175	281	455	-174
Xiva	277	327	-50	297	339	-42
Shovot	415	441	-26	297	505	-208
Yangiariq	297	319	-22	396	375	21
Yangibozor	296	306	-10	197	278	-81

Migrasiya saldosining yuqori darajasi Xazarasp tumanida (minus 0,4 ming kishi), Urganch shahrida (minus 0,4 ming kishi), Gurlan tumanida (minus 0,2 ming kishi) kuzatildi.

## Demografik holat

**Aholi zichligi.** 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha aholi zichligi 1kv.km ga 303,4 kishiga to'g'ri keladi, shahar va tumanlar kesimida zich joylashgan hududlar Urganch shahar 4726,7 kishi, Xiva shahar 3023,3 kishini tashkil qilsa va aksincha Xazorasp tumani 118,2 kishi, Yangibozor tumani 251,8 kishiga to'g'ri keladi.

### Aholi zichligi (2018 yil, yanvar-dekabr)

Shahar va tumanlar	Doimiy aholi soni	Er maydoni ,ming kv.km	Aholi zichligi, kishi
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>1835,5</b>	<b>6,05</b>	<b>303,4</b>
Urganch shahar	141,8	0,03	4726,7
Xiva shahar	90,7	0,03	3023,3
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	160,9	0,44	365,7
Gurlan	145,4	0,44	330,5
Qo'shko'pir	168,5	0,54	312,0
Urganch	193,7	0,45	430,4
Xazorasp	243,5	2,06	118,2
Xonqa	182,7	0,43	424,9
Xiva	142,5	0,43	331,4
Shovot	166,4	0,46	361,7
Yangiariq	113,7	0,40	284,3
Yangibozor	85,6	0,34	251,8